



BADIIY ASARLARDA RAMZIY VA MAJOZIY OBRAZLARNING SHAKLLANISH TARIXI

Moxichehra Muxammadiyeva,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207261>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ramziy va majoziy obrazlarning adabiyotimizdagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Olimlar tomidan keltirilgan ta‘riflar o‘zaro qiyoslanadi va xulosa beriladi. Ramziy va majoziy obrazlarning farqi jadval orqali qiyosiy o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** ramz, simvol, majoz, haqiqat, allegoriya.*

Qadimgi mif, afsona va xalq og‘zaki ijodi namunalarida yashab kelgan ramz yozma adabiyotda ham keng qo‘llanila boshlandi. Ramziy obrazlar orqali badiiy asarlarning ma‘no ko‘lami yanada ortdi. Ularning ildizi xalq og‘zaki ijodiga borib taqaladi. Ramziylik qadimgi mifologiyada, san‘atning eng qadimgi shakllarida, turli dinlarda inson tafakkurining o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida ko‘zga tashlanadi. Ramz va ramziy ifodalarning eng qadimgi ko‘rinishlari, o‘sha davrda yashagan kishilarning tafakkur olamiga mos ravishda faqat belgi va ishoralardan iborat bo‘lgan. Asosan chorvachilik, ovchilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan qadimgi odamlar ov hududlarini belgilash, o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulknini boshqalarnikidan farqlash uchun turli xil belgi va ishoralardan foydalanishgan. Ular o‘zlarini o‘rab turgan atrof-muhitga bo‘lgan qarashlari asosida tabiat kuchlari asos qilib olingan turli xil ramziy obrazlar yaratdilar. Bu ramziy belgilar ma‘lum bir axborot tashish uchun xizmat qilgan. Inson tafakkuri rivojlanib borgani sari ramziy ifodalarning ma‘no doirasi ham kengayib 472urkey. Inson dastlab yorug‘lik va qorong‘ulikni anglagan. Chunki kunduzi ular tashqi olamni ko‘ra olishgan va bu ov jarayonida kamroq xavf-xatar tug‘dirgan. Tunda esa buni aksi kuzatilgan va ular qorong‘ulikdan qo‘rqishgan. Asta-sekin bu qo‘rquv qora rangni insonlar ongida yovuzlik va o‘lim ramzi sifatida shakllantirgan. Kunduz kunidagi yorug‘likni ezgulik ramzi sifatida oq rangda tasavvur qilishgan. Qadimda xudolar osmonda yashaydi degan tassavvur esa ko‘k rangni ilohiy ramz sifatida shakllantirgan va “Ko‘k tangri” iborasi paydo bo‘lishida ham, shu qarash sabab bo‘lgan deyishimiz mumkin. Ozodjon Ochilov ham tadqiqotida ramziy obrazlar yuzaga kelishi haqida quyidagi



fikrlarni bildirib o‘tadi: “Ibtidoiy odamning ifoda qila olish qobiliyatining zaifligi, mujmallik, noaniqlik kabi xususiyatga ega ekanligi natijasida shakily obrazlarga mistika singdirildi va g‘ayrioddiy asotsiativ qarash yuzaga keldi. Bizningcha miflardagi ramzlarning ildiziaynan shu yerda” [1:32].

Ramzlarning paydo bo‘lishi ruhiy-psixologik asosga ega. Goblid Alviella “Ramzlar migratsiyasi” asarida bu borada quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Ramz bu ifoda shaklidir. Uning asosiy maqsadi narsa-predmetning nusxasini olish emas, u shaklning ma’noga, shaklning shaklsizlikka aylanishidir” [2:16]. O.Ochilov ushbu fikrga tayanib, ramzlarni aslida chegaralangan cheksizlik, shaklga solingan shaklsizlik, individuallikka mujassamlashgan umumiylik xususiyatlariga ega bo‘lgan tafakkur 473urke deb baholaydi. Ramziy obrazlarning ildizi zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblangan “Avesto”dir. Asarda Qayumars va Jamshid haqida miflar alohida o‘rin egallaydi. Qayumars yer yuzida yaratilgan odamning ilk timsolidir. U Ahuramazda tomonidan yarmi ho‘kiz, yarmi odam qilib yaratilgan bo‘lib, u ezgulik va yaxshilikning ramziga aylangan Ahura Mazda tarafidan yaratilgan. Qahramon insonlarning ramzi sifatida tasvirlangan. Jamshid obrazi esa adolat ramzi sifatida Attor, Jomiy, Navoiy asarlarida hamda bir necha yozma asarlarda ham keltirib o‘tilgan. Shuningdek, Qayumars va Jamshidning yovuz Ahriman va uning devlariga qarshi kurash olib borishi, ezgulik va adolatning yovuzlik ustidan qilgan g‘alabasi sifatida tasvirlangan. Kultegin ba Bilgaxoqon bitiktoshlarida ham bir necha ramziy obrazlarni uchratish mumkin. Masalan, bo‘ri obrazi kuchlilik, botirlikning ramzi sifatida e’tirof etilgan. Qadimiy yodnomalardan yana biri bo‘lgan To‘nyuquq bitiktoshida ham osmon Xudoning ramzi sifatida tasvirlangan. Ramz va majoz ikki xil hodisa bo‘lsada, N. Shukurov, N. Hotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudovlarning “Adabiyotshunoslikka kirish” darslik qo‘llanmasida ramz majozning turlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi: “Simvol (ramz) majoz turlaridan biri bo‘lib, biror hayotiy voqea yoki tushunchani ifodalash uchun shartli ravishda qo‘llanilgan so‘z va so‘z birikmalaridir” – deya ta’rif beradi. Shuningdek XI-XII asrlar majoziy tasvir badiiyatini o‘rgandan Laylo Mirzoxidova o‘z tadqiqotida ramz va majozni bir xil hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikrlariga ko‘ra simvol, ramz, allegoriya, metafora, metonimiya, istiora, va hokazo ko‘chimlar hosil bo‘lish usuliga ko‘ra bir-biriga o‘xshash yoki bir-biridan biroz farqli ravishda ta’riflanmasin, mohiyat, vazifa nuqtai nazaridan bir xil, ya’ni o‘z ma’nosidan boshqa ko‘chma ma’noda ishlatiladigan so‘z birikmalidir. Demak, badiiy

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



adabiyotda so‘z va so‘z birikmalarini, narsa va hodisalarni o‘z ma’nosidan boshqa ma’noga ko‘chirib ishlatish majoz deb yuritiladi [3:51]. Shuningdek M. Yoqubbekova ham “Xalq lirikasidagi gul ekspressemasining lingvopoetik talqini” nomli risolasida gul bilan bog‘liq ko‘chimlarni tahlil qilar ekan: Gul 474urkey obraz sifatida go‘zallik, maftunkorlik, nafosat, muattarlik, qizillik kabi belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan ramz darajasiga ko‘tarilganligi uchun ham 474urke qiyoslash ijobiy emotsional ekspressiv tassurot tug‘diradi”[4:28], – deb ta’kidlaydi. Tadqiqotchi “gul” va “bulbul” obrazlarini gohida ramz gohida esa majoz tarzida talqin qiladi, natijada ramz haqidagi xulosalarda ikki xillik yuzaga keladi. Qanday holatlarda ramz yoki qanday holatda majoz bo‘lib kelganligiga oydinlik kiritish uchun matn doirasidan kelib chiqib xulosa berilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Majoz, allegoriya – adabiy-badiiy usul yoki obrazlilik turi; mavhum tushuncha yoki mulohazani aniq bir obraz vositasida ifoda etish. Majozda ikki tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi. Ma’naviy qadriyatlar, (haqiqat, muhabbat, vijdon iymon kabi) ni anglatuvchi umumiy tushunchalar birga ma’lum tipik hodisalar, xarakterlar, mifologik personajlar, hatto aniq shaxslar ham majoz o‘rniga kelish mumkin. Majozning obrazli-predmetli va ma’noli kabi ikki tomoni mavjud bo‘lib, ma’noli tomon birlamchi, obrazli-predmetlisi ikkilamchidir. Chunki obrazda hamisha oldindan ma’lum bo‘lgan fikr qayd etiladi. Shu tufayli majoziy obraz oddiy badiiy obrazdan farqli ravishda maxsus sharhni talab qiladi” [5:313]. Majoz ham asarning badiiy qimmatini oshiradigan vositalardan biridir. Adabiyotshunoslik lug‘atida majozga quyidagicha ta’rif beriladi: “Majoz – mumtoz adabiyotshunoslikda so‘zning o‘z ma’nosida emas, boshqa bir ko‘chma ma’noda ishlatish, ko‘chimning umumiy nomi” [6:244]. Bu qisman tor ma’noda bo‘lib, T.V. Simashko “Rus tilidagi metaforik ifodalarni tahlil qilish” nomli tadqiqotida majoz tushunchasini quyidagicha ta’rif beradi: “Majoz haqiqatning ba’zi lahzalarini yaxlit va butunligicha obrazli aks ettira oladi. Pirovard natijada uning vazifasi muaayan majoziy ma’no berishdir. Majozlarning eng ilg‘ori bu holatda ba’zi majoz beruvchi yagona 474urkey474c ma’no yasovchilarga mansub bo‘ladi. Bu o‘rinda tadqiqotlarda asosiy e’tibor majoziy so‘zlar yon-atrofida kelgan so‘zga qaratiladi” [7:25]. Bundan tashqari E.A.Nekrasova, Sh.Karimov, X. Sharifov, M.Imomnazarov, A. Qurbonbekov M. Salomov kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida majoz va uning mohiyati haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tadilar. G‘iyos ul-lug‘at sharhlarida: “Majoz – yo‘l va o‘tish joyi va ziddi haqiqat va haqiqiy ma’nosidan boshqa ma’noda ishlatilgan va asl ma’nosini yo‘qotmagan, so‘z ma’nosida, mavzu ma’nosida o‘xshashlik aloqasi

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



bo‘lib, uningsiz ham ro‘yobga chiqa oladi, chunonchi: eshak aslida aqlsiz hamoqati (axmoqligi) bor hayvon ma‘nosidadir, odamga nisbatan ishlatilsa axmoq kishi ma‘nosini beradi”. Demak, majoz so‘zining istilohiy ma‘nosi, so‘zning o‘z ma‘nosidan uzoqlashmay, balki u bilan o‘xshashlik tamoyillari orqali aloqadorlikka yoki zaruriyat yoki sababiyatga ega bo‘lishida namoyon bo‘ladi [8:67]. Shu o‘rinda aytish kerakki, majoz bir vositadir, u orqali lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lgan so‘zlar, qo‘shimcha ma‘noga ham ega bo‘ladi. Majoz istilohi paydo bo‘lishidan boshlab “haqiqat” so‘zi bilan antonimlik xususiyat kasb etdi va ko‘pgina o‘rinlarda ular tanosub va bir-birining tazodi o‘laroq ifodalanadi. Ya’ni agar majoz so‘zni asl ma‘nosidan boshqa ma‘no keltirish bo‘lsa, haqiqat so‘zlarning asl ma‘nosi ifodasidir. Majoz ramzga nisbatan keng qamrovlidir. Ramz va majoz o‘rtasidagi farqni yanada yaxshiroq tushunish uchun quyidagi jadvalni ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Majoz	Ramz	
1. Adabiy-badiiy usul;	1. Voqelikni aks ettirish usuli;	
2. Mavhum tushuncha aniq obrazda ifodalanadi.	2. Ramz ko‘p ma‘nolik xususiyatiga ega.	
3. Majoz bilan mavhum tushuncha o‘rtasida bog‘liqlik bo‘ladi.	3. Mazmun obrazli qurulish bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan: tulki – ayyorlik ramzi.	
4. Majoziy obraz oddiy obrazdan farq qiladi.	4. Ramzlar sharhlanmaydi, u aniq ko‘rinib turadi.	
1. Matnda ham o‘z ma‘nosida, ham ko‘chma ma‘noda qo‘llaniladi.	5. Tasvirlanayotgan narsani emas, muallif ko‘zda tutgan ma‘noni bildiradi.	
6. Majozda bir narsaning ma‘nosi boshqa narsaga nisbatan ko‘rsatiladi.	6. Ramzning obrazi va mazmuni orasida ko‘pincha oddiy munosabat mavjud bo‘ladi.	
7. Majozda bunday munosabat kompleks tarzda namoyon bo‘ladi.	7. Ramz voqelikni jonli mushohada qilish orqali vujudga kelgan tasavvurdan iborat.	



Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ramziy va majoziy obrazlar badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan tasviriy vositalardir. Majoziy obrazlar bevosita tushuncha yoki ma‘no beradigan so‘zlar yoki ifodalar bo‘lib, ular tasvirlangan hodisa yoki obyektning boshqa biror narsani anglatishini ta‘minlaydi. Ramziy obrazlar esa biror narsaning o‘zi emas, balki uning ma‘nosi yoki belgilangan ramzi sifatida ishlatiladi. Masalan, oq qush erkinlik va tinchlikning ramzi sifatida tasvirlanishi mumkin. Ushbu obrazlar adabiyot va san‘atda muayyan ma‘no yoki hissiyotlarni yetkazish uchun zarur vositalar bo‘lib, ular kitobxonning tasavvurini kengaytiradi va asarning ma‘no ko‘lamini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Очилов О. VII-X асрлар танг даври шеърлятида рамзлар семантикаси. Ф.ф.д. дисс. – Т.: 2018. – В. 16.
2. G.d’Alviella. La migration des symbolis. – California.: The University of California, 2007, 343 p.
3. Mirzoxidova Laylo. XI-XII asrlar 476urkey adabiyotida majoziy tasvir badiiyati. F.f.d diss. Samarqand 2018
4. YoqubbekovaM. Xalq lirikasidagi gul ekspressemasining lingvopoetik talqini. –Т.:2004. – В .28
5. В. Sayfullayev. Madaniyat va san‘at atamallari qomusiy lug‘ati. –Т.:2014. –В.313
6. D. Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Т.: Akademnashr, 2010. – В.244.
7. Симашко Т.В. Анализ метафорического вичказивания в русском языке: Автореф. Дисс...канд.филол. наук. –Москва, 1980. –25 с.